

# QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI

ILMIY-ELEKTRON JURNALI  
1-SON

**KOKAND UNIVERSITY  
HERALD**


**2023**  
VOLUME №1



**QO‘QON  
UNIVERSITETI  
XABARNOMASI  
1-SON**

**KOKAND  
UNIVERSITY  
HERALD  
VOLUME 1**

**ВЕСТНИК  
КОКАНДСКОГО  
УНИВЕРСИТЕТ  
ВЫПУСК 1**



1/2023

# QO'QON UNIVERSITETI

## XABARNOMASI

### Ilmiy-elektron jurnali

#### Tahrir kengashi raisi:

G'.E.Zaxidov

#### Bosh muharrir:

Sh.R.Ruziyev

#### Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

A.A.Yusupov

#### Tahririyat hay'ati:

1. I.f.d., prof., S. G'ulomov (O'z.R. Fanlar Akademiyasi)
2. DSc., prof., Sh. I. Mustafakulov
3. DSc., Mark Rozenbaum (AQSH)
4. PhD., I. Bobojonov (IAMO, Germaniya)
5. PhD., N. Djanibekov (IAMO, Germaniya)
6. PhD., K. Akramov (IFPRI, AQSH)
7. PhD., N. Yusupov (Woosong University, J.Koreya)
8. DSc., D. Xosilova (University of Wyoming, AQSH)
9. I.f.d., prof., B. Salimov (TDIU)
10. I.f.d., prof., K. Axmedjanov (KIUT)
11. I.f.d., prof., N. Maxmudov (TDIU)
12. PhD., Sh. Aktamov (Singapur universiteti)
13. I.f.d., prof., U. Gafurov (TDIU)
14. I.f.d., prof., X. Qurbonov (TDIU)
15. F.f.n., dotsent D. Xodjayeva (QDPI)
16. I.f.n., dotsent, N. Urmonov (TDIU)
17. F.f.d., prof., Sh. Shaxobidinova (ADU)
18. F.f.d., prof., M. Umarxodjayev (ADU)
19. I.f.n., dotsent, J. Qambarov (FarPI)
20. PhD, dotsent, D. Rustamov (ADU)
21. I.f.n., dotsent, A. Islamov (Qo'qon universiteti)
22. PhD., M.Najmiddinov (Qo'qon universiteti)

#### Qo'qon universiteti xabarnomasi

("Вестник Кокандского университета – Kokand University Herald") ilmiy-elektron jurnali Qo'qon universiteti Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2020-yil 10- oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1138 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-1695 ISSN-raqami olingan.

© "Kokand University" – 2023

#### Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Turkiston ko'chasi, 28 a-uy, 1-xonadon

## Mundarija:/Outline:

Iqtisodiyot / Economy			
1.	K. Konstantin	Factors and vector of the development of institutions in the sme sector of the national economy	3-7
2.	B. Khursanaliyev	The impact of population growth on the country's economic development	8-11
3.	N. Sharapova	Network analysis of social media research in entrepreneurship development	12-15
4.	M. Абдуллаев	Тенденции и перспективы развития сферы услуг в узбекистане	16-20
5.	Г. Карабаева	Стимулы развития малого бизнеса для повышения качества жизни населения	21-24
6.	A. Вахромов	Problems of the digitalization process in networks and sectors of the economy	25-28
7.	Sh. Dexkanov	Qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmi samaradorligini oshirish	29-34
8.	N. Karimova	Analysis of the current state of retail advertising: a systematic mapping study	35-38
9.	O. Isaev	Внедрение международных стандартов при исламском финансировании в узбекистане	39-42
10.	J. Nuritdinov, A. Abdullayev	O'zbekistonning jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun uzoq yo'li va xitoy tajribasi	43-47
11.	J. Qodirov	Davlat-xususiy sherikchiligi asosida amalga oshirilgan loyihalarning investitsiyaviy samaradorligini oshirishda soliq va sug'urtalashning o'rni	48-50
12.	S. Rustamova	Korxonalarda qabul qilingan qarorlarni boshqaruv samaradorligiga ta'sirini iqtisodiy matematik modellashirish	51-56
13.	A. Sattorov	Auditorlik tashkilotlari tomonidan auditorlik tekshiruvlari o'tkazish jarayonida dalillarni to'plash ahamiyati va zaruriyati	57-60
14.	B. Turanboyev Sh. Nishonkulov	Does inflation significantly affect stock investments and their price?	61-64
15.	A. Xojayev	Oliy ta'lim muassasalarida byudjetdan tashqari faoliyatidagi daromadlari va xarajatlari hisobini takomillashtirish yo'llari	65-68
16.	M. Xomidov	Mamlakatimiz iqtisodiyotini takomillashtirish jarayonida innovatsiyalarni joriy etishning o'rni	69-72
17.	N. Yuldasheva, A. Umarov, A. Abdullayev	Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot rivojlanishi	73-75
18.	A. Yusupov	O'zbekiston iqtisodiy sharoitida inson resurslaridan foydalanishdagi faoliyat turlari	76-78
19.	M. Turg'unov	Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarishda ekonometrik prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish	79-83
20.	D. Мамаюсупова	Мамлакатизда давлат-хусусий шериклиги асосида туризмни барқарор ривожлантириш истиқболлари	84-90
21.	K. Ахмеджанов Ф. Зайниев	Аҳоли даромадлари ва харажатлари балансига жисмоний шахслар даромад солигининг оптимал таъсирини таъминлаш йўллари	91-96
Pedagogika / pedagogy			
22.	Sh. Jumanova	Peyzajning ijtimoiy - psixologik motivni anglatishdagi o'rni	97-99
23.	O. Kasimova	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy faoliyati jarayonida pedagogik improvizatsiyaning o'rni	100-102
24.	B. Safarov	Xalqaro baholash dasturlari (pirls) asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarinining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish	103-105
25.	A. Тангриев	Малакали дзюдочиларни тайёрлашда буралиб улоқтириш бўйича малака тавсиялар	106-111
Lingvistika / Linguistics			
26.	D. Azimova D. Solidjonov	Learning english language as a second language with augmented reality	112-115
Qishloq xo'jaligi / Agriculture			
27.	A Xatamov X. Jabborov	«BUXOROISHARIF» zavod tipining asosiy xususiyatlari	116-118



## «BUXOROISHARIF» ZAVOD TIPINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

**Xatamov Asror Xudoyberdiyevich**

q.x.f.d (PhD), katta ilmiy xodim.,

**Jabborov Xasan Komil o'g'li – magistr**

Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-mart 2023-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-mart 2023-yil <b>Jurnal soni:</b> 1 <b>Maqola raqami:</b> 27 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.265">https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.265</a></p>	<p>Maqolada yassigul tipidagi sur qorako'l qo'ylarining «Buxoroisharif» zavod tipining yaratilish tavsifi, qo'llanilgan seleksion usullar, ilmiy yangiligi, boshqa Buxoro suri zot tipidagi zavod tiplaridan farqlanishi, asosiy xususiyatlari ekstereri, konstitutsiyasi, mahsuldorligi, ko'payishi, hayotchanligi va chidamliligi bo'yicha o'zaro o'xshashligi-turdoshligi, asosiy belgi va xususiyatlari urchitish davomida o'zgarishligi ya'ni barqarorligi va boshqa xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords</b> qorako'l qo'yi, zavod tipi, gul tipi, jun tolasi, rang, rangbaranglik, tirik vazn, eksterer.</p>	

**Kirish.** Qorako'l qo'yi dunyoning 40 dan ortiq mamlakatlarida urchitilib kelinadi. Qorako'lchilik O'zbekistonda cho'l yaylovlaridan oqilona foydalanib, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtiruvchi daromadli soha hisoblanadi. Qorako'l qo'ylari ekstremal cho'l sharoitlariga yaxshi moslashgan, deyarli yil bo'yi yaylovdan oziqlanib, qimmatli mahsulotlar yetishtirib beradi.

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda urchitiluvchi qo'ylarning bosh soni 18,0 mln. bosh atrofida. Shundan faqat qorako'l zotiga mansub qo'ylarining bosh soni 6,0 mln. bosh atrofida.

Hozirga qadar qorako'l qo'ylarining mahsuldorligini oshirishga qaratilgan ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Tadqiqotlarda qo'ylarning teri sifatini yaxshilash, oziqlantirish va saqlash, go'sht, sut va jun mahsuldorligini oshirish imkoniyatlari aniqlangan. Shu bilan birgalikda qorako'lchi olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosida yuqori mahsuldor 33 ta zavod tiplari yaratilgan. Buxoro viloyati "Amir Temur" MChJ qorako'lchilik xo'jaligida 2008 yilda "Yassigul tipidagi sur qorako'l qo'ylarining "Buxoroisharif" zavod tipi" yaratilgan va O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan 2008 yilda №ZAP 00016 raqamli patent guvohnomasi berilgan. Ushbu zavod tipiga mansub qo'ylar ko'plab xususiyatlari bilan boshqa zavod tiplaridan farq qiladi.

Zavod tipini yaratishga qaratilgan seleksiya ishini shartli tarzda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Seleksiya uchun dastlabki qadam sifatida maqsadga muvofiq hayvonlar guruhini tashkil qilish.

2. Ko'zlangan natija bo'yicha maqsadga muvofiq tipli hayvonlarni juftlash va undan olingan hayvonlar guruhini mahsuldorlik va nasl xususiyatlari bo'yicha baholash.

3. Maqsadga muvofiq tipning qimmatli xususiyatlarini hayvonlarda mujassamlash va kuchaytirish maqsadida liniyalar bo'yicha urchitish yo'li bilan mol bosh sonini ko'paytirish bo'yicha seleksiya yutug'ini sinovdan o'tkazish (aprabatsiya) va qo'llanmada ko'zda tutilgan o'lchamlarga yetkazish.

4. Yaratilgan sermahsul qo'ylar suruviga yangi zavod tip maqomi berilishi bilan bog'liq xujjatlarni tayyorlash, Davlat sinovidan o'tkazish va mazkur tipli hayvonlarni boshqa ho'jaliklarda urchitishni joriy qilish.

Yangi zavod tiplarini yaratish ishlari quyidagi tartibda o'tkaziladi:

1) Mazkur mintaqa qorako'lchiligining ravnaqi va hayvonlarning yangi tipini yaratishning naqadar lozimligini aniqlash;

2) Yaratilajak hayvon tipining maqsadga muvofiq deb topilgan mahsuldorlik o'lchamlarini belgilash;

3) Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun mos keluvchi xo'jalikni tanlash, undagi qo'ylar populyatsiyasining oziqlanish va yaylov iqlim sharoitlarini o'rganish;

4) Ishning bajarilish usuli va kalendar rejasi (seleksiya-naslchilik ishlar rejasi) ni tuzish;

5) Dastlabki materialni tanlash, seleksiya talablariga javob beruvchi hayvonlar guruhini ajratish, ularning mahsuldorlik va nasl xususiyatlarini o'rganish;

6) Irsiy xususiyatlarining to'liq namoyon bo'lishiga yordam beruvchi kerakli oziqlantirish va asrash sharoitlarini yaratish;

7) Maqsadga muvofiq tipli hayvonlarni maqsadli juftlash, olingan oraliq hayvonlar guruhini mahsuldorlik va nasl sifati bo'yicha baholash;

8) Liniyalar, oilalar tashkil qilish va yaratish yo'li bilan seleksiyalanuvchi hayvonlar guruhiga xos bo'lgan belgi va xususiyatlarning hayvonlar irsiyatida mustahkamlanishi va kuchayishiga erishish;

9) Naslchilik zavodi yoki reproduktiv naslchilik xo'jaligida urchitilayotgan maqsadga muvofiq tipli hayvonlarning bosh sonini boshqa xo'jaliklarning naslli mollarga bo'lgan ehtiyojini to'lig'icha qoniqtira oladigan o'lchamlarga yetkazish;

10) Yangi zavod tipini Davlat sinovidan o'tkazishda kerak bo'luvchi xujjat va materiallarni tayyorlash;

11) Yangi tip hayvonlarni naslchilik reproduktiv xo'jaliklari orqali tovar xo'jaliklarga tarqatish;

Nasl va mahsuldorlik xususiyatlari atroflicha tekshirilib, baholangan yangi tip qo'ylar guruhi mahsus komissiya tomonidan rasmiy tarzda tasdiqlanadi. Yangi zavod tipini yaratish uchun o'rtacha 12-15 yil vaqt ketadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Yangi zavod tipi ko'rinishida shakllangan qorako'l qo'ylari morfologik, mahsuldorlik va boshqa ijobiy xususiyatlarning barqaror avlodlarga berilishi asosiy ahamiyatga ega. Zavod tiplari tarmoq ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda xo'jalikda seleksiya – naslchilik ishlari sayyasini ko'tarish, muayyan ekologik mintaqaning naslli mollarga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida yaratiladi.

Qorako'lchilikda zavod tipini yaratishning bosh sharti – qo'ylarning sifatli qorako'l mahsuldorligi, mustahkam konstitutsiya va urchitishning muayan yaylov-iqlim mintaqasiga moslashganligi hisoblanadi. Zavod tipi asosan mahsuldorlik ko'rsatkichlari o'xshash hayvonlarni juftlash usulini qo'llangan holda sof zotli urchitish yo'li bilan yaratiladi. Zavod tipi – o'zining mahsuldorlik va biologik xususiyatlari bilan ajralib turadigan va ushbu ko'rsatkichni avlodga mustahkam ravishda bera oladigan hayvonlar guruhi hisoblanadi.

Cho'l sharoitida qora rangli qorako'l qo'ylarini seleksiyalash yo'nalishida tadqiqotlar olib borilgan. Natijada qora rangli qorako'l qo'ylarining qumli cho'l sharoitida muhim seleksion belgilarining namoyon bo'lishi hamda ushbu belgilar orasidagi qorrelatsion bog'liqlik darajalari aniqlangan (Gaziyev va boshqalar, 2017). Shuningdek, O'zbekistonning cho'l hududlarida qorako'l qo'ylarining gul tiplarining namoyon bo'lishi va ushbu belgilarning rang ifodalanishi va tekisligiga o'zaro bog'liqligini tahlil qilish urchitish samaradorligini oshiradi (Gaziyev A., Fazilov U. T., Mamatov B., 2017).

Qo'ylarning rangbarangligi va gul tipi bo'yicha turli variantlarda juftlash ishlari natijalari kumushsimon rangbaranglikdagi qo'ylarni juftlashda avlodlarning 77,8 foizi kumushsimon, 14,7 foizi olmos, 9,0 foizi tillasimon rangbarangliklarga, olmos va kumushsimon rangbaranglikdagi qo'ylarni geterogen juftlashda ushbu ko'rsatkichlar mutanosib ravishda 40,5; 44,4; va 8,5 foizni tashkil etishi qayd etilgan (Gaziyev A., Mamatov B.S., 2022). Shu bilan bir qatorda gul ko'rsatkichlari bo'yicha qo'ylarni turli variantlarda juftlashda gul shakllari va uzunligining ma'lum darajada ijobiy o'zgaruvchanligi kuzatilib, ushbu ko'rsatkichlarning namoyon bo'lishi gul tipi bo'yicha gomogen juftlashda kuchayadi, geterogen juftlashda susayadi (Mamatov B.S., Gaziyev A., 2022).

Qorako' qo'ylarning etologik ko'rsatkichlari ularning tirik vazni, go'sht mahsuldorligi, so'yim ko'rsatkichlari va kimyoviy tarkibiga ta'sir ko'rsatadi (N.A. Boboqulov va boshqalar, 2021). Bu esa o'z navbatida cho'l sharoitida sohaning ehtiyojlaridan kelib chiqib, yuqoridagi xususiyatlarni inobatga olgan holda yangi zavod tiplarini yaratish imkonini mavjud ekanligini ko'rsatadi.

Genetik jihatdan fenotipik o'zgaruvchanlikning bir qismi hisoblangan belgilarning irsiylanishi nasl qiymatini baholovchi mezonlardan biri hisoblanadi. Belgilar orasidagi korrelyatsion bog'liqliklarni bilish va ulardan samarali foydalanish asosida naslchilik ishlarini osonlashtirish mumkin (Gaziyev va boshqalar, 2022).

Yangi zavod tiplarini yaratishda qorako'l qo'ylarini oziqlantirish xususiyatlarini ham hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Qorako'l qo'ylarining o'sish ko'rsatkichlarini yaxshilashda ekstruderlangan ozuqalar, probiotiklardan foydalanish yaxshi samara beradi (Xatamov A.X., Normuminova M., Qozoqov J., 2022, Xatamov A.X., Normuminova M., 2022, Xatamov A.X., Qozoqov J., 2022).

S.Yu. Yusupov va boshqalar (2004) tadqiqotlarida O'zbekistonda yaratilgan qorako'l qo'yining naslchilik resurslari to'g'risida ma'lumotlar keltirilib, ushbu yaratilgan naslchilik resurslaridan samarali foydalanish yo'nalishlari ochib berilgan.

Qorako'l qo'ylarining yangi zavod turlarini yaratish, ularni huquqiy muhofaza qilish va amaliyotda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi (Axmadaliyeva L. va boshqalar, 2021).

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot ishlari Buxoro viloyatining Jondor tumani "Amir Temur" MChJ qorako'lchilik xo'jaligida urchitiluvchi qorako'l qo'ylarida olib borilgan.

Zavod tipini yaratilishda rangbarangligi, gul tipi va sinfi bo'yicha gomogen va geterogen juftlash usullari qo'llanilgan. Zavod tipini yaratilishida yassi tipdagi sur qorako'l qo'ylarini tanlash amalga oshirilgan, so'ngra ular gul tipi va sinfi bo'yicha yuqori sifatli guruhlarga ajratilgan. Hayvonlarning naslini mustahkamlash, belgilar barqarorligini ta'minlash va rang ifodalanishini yaxshilash maqsadida boshqa xo'jaliklardan bir xil turdagi qo'chqorlarni yig'ib, ekstereri va jun-konstitutsional xususiyatlari bo'yicha sinovdan o'tkazilgan. Sinov natijalari asosida yangi tipdagi hayvonlarni individual tanlash va juftlash amalga oshirilgan. Yangi yaratilgan hayvonlar guruhining bosh sonini oshirish uchun yassi gul tipi genotipiga ega bo'lgan qo'chqorlarni zavod tipidan tashqari podaning yassi tipli soviqlari bilan geterogen juftlashni qo'llash amalga oshirilgan. Yakuniy naslchilik ishlari barqaror genotipli va barqaror irsiy salohiyatga ega hayvonlar sonini ko'paytirish yo'nalishida olib borilgan.

Tadqiqotlarda olingan avlodlarni baholash "Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilar baholash (bonitirovka o'tkazish) bo'yicha qo'llanma" asosida olib borilgan (S.Yu. Yusupov va boshqalar, 2015).

**Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Yaratilish tavsifi.** Seleksiya yutug'iga patent olish Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida bajarilgan A-11-120 raqamli "Rangli qorako'l qo'ylarini sifatli rangbarang va gul tipli bozorgir qorako'l teri yetkazuvchi yuqori mahsuldor potsulyatsiyalarini yaratishda genetik potensialidan unumli foydalanish asosida naslchilik ishlarini yuritish usullarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida erishilgan. Gipsli cho'l sharoitida urchitiluvchi qorako'l qo'ylarining seleksion va mahsuldorlik xususiyatlarini hisobga olgan holda raqobatbardosh eksportbop mahsulot olish uchun kumushsimon sur rangli qorako'l qo'ylarining yuqori mahsuldor suruvlarini yaratishning seleksiya-naslchilik usullari ishlab chiqilgan.

Buxoro viloyatining Jondor tumani "Amir Temur" MChJ qorako'lchilik xo'jaligida 1999 yilda ilmiy-ishlab chiqarish naslchilik

fermasi tashkil etilgan. Uzoq vaqt davomida xo'jalikda yetishtirilayotgan qorako'l qo'ylarining salohiyatidan samarali foydalanish asosida tanlash va seleksiya ishlarini amalga oshirish yo'li bilan yassi gul tipidagi kumushsimon va tillosimon rangbaranglikdagi yuqori mahsuldor qorako'l qo'ylarining yassi gul tipli eng yaxshi navga ega bo'lgan qorako'l mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha zavod podasi yaratildi.

Dastlab yassi tipdagi sur qorako'l qo'ylarini tanlash amalga oshirilgan, so'ngra ular gul tipi va sinfi bo'yicha yuqori sifatli guruhlarga ajratilgan, "qonni yangilash" va rang ifodalanishini yaxshilash maqsadida "Nurota" va Abay nomli naslchilik zavodlaridan bir xil turdagi qo'chqorlarni yig'ib, ekstereri va jun-konstitutsional xususiyatlari bo'yicha sinovdan o'tkazilgan. Keyinchalik, yangi tipdagi hayvonlarni individual tanlash va juftlash amalga oshirilgan va ular bosh sonini oshirish uchun yassi gul tipi genotipiga ega bo'lgan qo'chqorlarni zavod tipidan tashqari podaning yassi tipli soviqlari bilan geterogen juftlashni qo'llash amalga oshirilgan.

Keyingi naslchilik ishlari barqaror genotipli va barqaror irsiy salohiyatga ega hayvonlar sonini ko'paytirishga qaratilgan. Avlodlarda yassi gul tipli qo'zilar 70-80% ni tashkil etadi, shundan elita va birinchi sinflilar ulushi 87-90% ni tashkil qiladi. Elita sinfi esa 25-28% ni tashkil qiladi. Ushbu xususiyatlarga ega bo'lgan suruv faqat "Amir Temur" MChJ qorako'lchilik xo'jaligida urchitiladi. Ushbu naslchilik materiali fermer xo'jaliklariga sotilmagan va ko'paytirish uchun boshqa shaxslarga berilmagan. Ushbu turdagi hayvonlarning asosiy mahsuldorligi, ekstereri, jun-konstitutsional xususiyatlari, reproduktiv xususiyatlari uzoq muddatli naslchilik ishlarida foydalanilganda o'zgarishsiz qoladi.

**Yangiligi.** Gipsli cho'l sharoitida ilk bor "Buxoroisharif" zavod tipidagi yassi gul tipidagi qorako'l qo'ylarining suruvi yaratilgan. Patent talabnomasi topshirilgan sanaga ko'ra, naslchilik materiali sotilmagan yoki naslchilik yoki foydalanish uchun boshqa shaxslarga berilmagan. Bu zavod tipidagi qorako'l qo'ylari faqat "Amir Temur" MChJ qorako'lchilik xo'jaligida urchitiladi.

**Farqlanishi.** Ushbu zavod tipidagi eng yaxshi hayvonlar normal (me'yori) rivojlanishi, konstitutsiyasi mustahkam, tana tuzilishi mutanosib, suyaklari yengil bo'lishi bilan ajralib turadi. Voyaga yetgan hayvonlar o'rtacha yog'li, elastik o'ralgan, o'rta uzunlikdagi jun tolalari, yaxshi o'sgan juni bilan ajralib turadi. Ilgari yaratilgan "Saribel" zavod tipidagi qorako'l qo'ylaridan farqli o'laroq, bu hayvonlar gipsli cho'l yaylovlari sharoitiga yaxshi moslashgan, uzoq yo'l yurishga va ekstremal cho'l sharoitlariga chidamli.

Qo'zilar o'lchami o'rta va yirik bo'lib, konstitutsiyasi mustahkam. Qo'zilar terisida yassi tipli qalamgullari va yolgullari yaxshi ifodalangan hamda aniq parallel-to'g'ri va parallel-konsentrik gul naqshiga ega. Jun tolalari kumush va oltin rangbarangligiga ega, rang tekisligi tekis, aniq ifodalangan kuchli ipaksimonlik va yaltiroqlikka ega. Jun tolalari o'rtacha zichlikdagi va o'rtacha uzunlikda, ikki qatlamli rangga ega - asosi to'q jigarrang yoki qora, uchlari oqish, po'latisimon, oq-kumushsimon yoki och oltin rangda 2/10-3 /10 nisbatda. Gullari zich, o'rtacha kenglikda, yag'rinida va sag'risida uzun yassi va yol gullar mavjud. Terisi yupqa va qalinlashgan.

**Turdoshligi.** Yassi qalamgul tipidagi kumushrang qorako'l qo'ylari tashqi ko'rinishi, ekstereri, jun-konstitutsional va reproduktiv xususiyatlari bo'yicha bir xil. Hayvonlar 6 yildan ortiq vaqt davomida tishlarining yemirilmasligi va uzoq vaqt mahsulot berish xususiyatiga ega, bu esa qo'shimcha go'sht, qorako'l teri va jun olish imkonini beradi. Ular yil davomida boqishga va ekstremal iqlim sharoitlariga yaxshi moslashgan. Yangi tug'ilgan qo'zilar va yosh hayvonlar ekologik jihatdan barqaror, hayotchanligi va chidamliligi yuqori. Yangi tug'ilgan qo'zilar zotga xos gul tipiga ega. Yag'rinida va sag'risida uzun yassi va yol gullar mavjud, yelkasida o'rtacha uzunlikdagi yassi qalamgullar va yolgullar mavjud. Jun tolalari o'rtacha zichlikda, uzunligi - 7-10 mm. Jun-tola qoplami yaxshi ifodalangan kuchli ipaksimonlik va yaltiroqlikka ega.

**Barqarorligi.** Jun qoplami tumshug'li, quloqlari, old oyoqlari, sonlari va dumning ichki yuzasidagi jun tolalari o'zgar olmaydi va asl rangini butunlay saqlab qoladi. Voyaga etgan qo'ylarning juni ostki qismi kulrang rangga ega, tola uzunligining -2/10-3/10 qismidan uchiga o'tishda keskin kontrastlik mavjud bo'lib, u hayvonlarni parvarish qilishning barcha bosqichlarida saqlanadi. Qo'chqorlarning tirik vazni 60-70 kg, soviqlari 40-55 kg, erkak qo'zilar 4-5 kg, urg'ochi qo'zilar 4,5 kg.



Kumush va oltin rangdagi qorako'l terilari o'rta va ingichka teri to'qimalari bilan ajralib turadi, nisbatan qisqa (7-10 mm) va terining butun maydoni bo'ylab kuchli ipaksimonlik va yaltiroqlikka ega.

**Oziqlantirish darajasiga, parvarishlash texnologiyasiga va foydalanishga qo'yiladigan talablar.** Ushbu zavod tipidagi qo'ylar yil davomida yaylovda boqiladi. Qo'ylarning asosiy ozuqa manbai gipsli cho'l sharoitida mavjud bo'lgan qurg'oqchil o'simliklar hisoblanadi.

Ushbu zavod tipining asosiy xususiyatlari ekstereri, konstitutsiyasi, mahsuldorligi, ko'payishi, hayotchanligi va chidamliligi o'zgarishsiz qoladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adxam G., Salimovich M. B. Variability Of Some Selection Parameters of Karakol Sheep in the Conditions of the Sandy Desert //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2022. – T. 9. – С. 59-61.

2. Ахмадалиева Л. и др. Новые заводские типы и их правовая охрана в каракулеводстве //Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 23-27.

3. Bobokulov N., Khatamov A., Abduzoirova D., Yusupov A., Urimbetov A., Olmasov B. (2021). Meat productivity of sheep in Uzbekistan and its relationship with different factors. In E3S Web of Conferences (Vol. 258, p. 04020). EDP Sciences.

4. Газиев А. и др. СЕЛЕКЦИЯ КАРАКУЛЬСКИХ ОВЕЦ ЧЕРНОЙ ОКРАСКИ В ЗОНЕ ПЕСЧАНОЙ ПУСТЫНИ //Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономического обеспечение сельскохозяйственного производства. – 2017. – С. 1427-1430.

5. Газиев А. и др. ИЗМЕНЧИВОСТЬ ГЕНЕТИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ КАРАКУЛЬСКИХ ОВЕЦ В РАЗНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЗОНАХ //Сельскохозяйственный журнал ISSN (Print): 2687-1246, ISSN (Online): 2687-1254. – 2022. – Т. 15. – №. 3.

6. Газиев А., Фазилов У. Т., Маматов Б. ПРОЯВЛЕНИЕ ЦЕННЫХ СМУШКОВЫХ ПРИЗНАКОВ ЯГНЯТ ОКРАСКИ СУР В ЗОНЕ ПЕСЧАНОЙ ПУСТЫНИ //Научно-практические пути повышения

**Хулоса ва takliflar.** Gipsli cho'l sharoitida ushbu zavod tipidagi qorako'l qo'ylari o'zining eksterer, konstitutsional, mahsuldorlik, ko'payish va hayotchanlik xususiyatlarini yuqori darajada namoyon qilgan holda qimmatli yassi qalamgul tipli qorako'l terilarini yetishtirish xususiyatiga ega. Shu nuqtai nazardan gipsli cho'l yaylovlaridan samarali foydalanish va sifatli qorako'l mahsuloti yetishtirish maqsadida yassigul tipidagi sur qorako'l qo'ylarining "Buxoroisharif" zavod tipini urchitish tavsiya etiladi.

экологической устойчивости и социально-экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства. – 2017. – С. 1434-1437.

7. Salimovich M. B., Adxam G. Some Selection Indicators of Progenies from Different Mating Options //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2022. – Т. 9. – С. 38-40.

8. Xatamov A., Normuminova M., Qozoqov J. B. THE USE OF INNOVATIVE METHODS IN FEEDING KARAKUL SHEEP //Conferencea. – 2022. – С. 127-131.

9. Xatamov A., Qozoqov J. B. The Effect Of Probiotics On Dairy Products //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2022. – Т. 10. – С. 130-132.

10. Xatamov A., Normuminova M. The effect of "barakat" fertilizer on the growth indicators of lambs and the milk production of children. ISSN: 2776-0979, In Volume 3, Issue 11 of Web of Scientist: International Scientific Research Journal. Nov., 2022. PP. 1550-1553 <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/NRKCT>

11. Юсупов С. Ю., Фазилов У. Т., Газиев А. Племенные ресурсы каракулеводства Узбекистана //Овцы, козы, шерстяное дело. – 2004. – №. 3. – С. 40-44.

12. Юсупов С.Ю. ва бошқалар. Қоракўлчиликда наслчилик ишларини юритиш ва қўзиларни баҳолаш (бонитировка ўтказиш) бўйича қўлланма. Тошкент 2015. 31 б.

**QO'QON UNIVERSITETI  
XABARNOMASI**

**KOKAND UNIVERSITY  
HERALD**

**ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО  
УНИВЕРСИТЕТА**

**1 / 2023**

**ISBN: 2181-1695**

Bosishga ruxsat etildi 2022-yil 28-dekabr.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/8 «Libre Franklin, Montserrat»  
garniturasida. Shartli bosma tabog'i 8. Adadi 20 nusxa.  
Buyurtma rakami № . Baxosi shartnoma asosida.  
"Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi"

bosmaxonasida  
chop etildi.





OJS  
OPEN  
JOURNAL  
SYSTEMS

